

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

QAMCHIBEK KENJA SAFARNOMALARINING TADRIJIY TAKOMILI

Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: Nematovah@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-6001-7627>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Qamchibek Kenja qalamiga mansub turkum safarnomalarning o'ziga xos xususiyatlari tahlilga tortilgan. Unda Qamchibek Kenjaning "Hind sorig'a" dan to "Buyuk Sohibqiron o'tgan yo'llar" gacha bo'lgan safarnomalari badiiy-publitsistik uslub, ishonchli faktlar, ma'lumotlar aniqligi va hayotiyliigi, muallif mushohadasining teranligi bilan ajralib turishi, shuningdek, sayyoh-yozuvchining safarnomalarda safar taassurotlari shunchaki bayon etilmay, balki ularning ijtimoiy-madaniy-ma'naviy jihatlarini bilan ham ahamiyatli ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yo'l, safar, sayohat, safardosh, sayyoh-muallif, publitsistik, badiiy, ilmiy, estetik, safarnoma, epilog, ekspeditsiya, taassurot, meros, janr.

ЭВОЛЮЦИЯ ПУТЕВЫХ ЗАМЕТОК КАМЧИБЕКА КЕНЖИ

Неъматова Хулкар Абдулбакиевна

Джизакский государственный педагогический университет, доцент (PhD).

Аннотация.

В данной статье анализируются характерные особенности путевых очерков Камчибека Кенжи. Рассматриваются произведения — от «Хинд сорига» («В Индию») до «Буюк Соhibqiron утган йулар» («Путями великого Сахибкيرانа»), — при этом особое внимание уделяется их художественно-публицистическому стилю, достоверности фактов, точности сведений, образности изложения и глубине авторских размышлений. Кроме того, в статье отмечается, что писатель-путешественник не просто описывает впечатления от поездок, но и раскрывает их значимость через призму социокультурных и духовных аспектов.

Ключевые слова: дорога, путь, путешествие, спутник, путешественник-автор, публицистический, литературный, научный, эстетический, травелог, эпilog, экспедиция, впечатление, наследие, жанр.

THE EVOLUTIONARY DEVELOPMENT OF QAMCHIBEK KENJA'S TRAVELOGUES

Ne'matova Hulkar Abdulbakiyevna

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article analyzes the distinctive features of the travelogues authored by Qamchibek Kenja. It examines works ranging from "Hind sorig'a" (Towards India) to "Buyuk Sohibqiron o'tgan yo'llar" (The Paths Traversed by the Great Sahibqiran), highlighting their artistic-journalistic style, factual reliability, precision of information, vividness, and the depth of the author's reflections. Furthermore, the article discusses how the traveler-writer does not merely recount travel impressions but also emphasizes their significance through socio-cultural and spiritual dimensions.

Keywords: road, journey, travel, companion, traveler-author, journalistic, artistic, scientific, aesthetic, travelogue, epilogue, expedition, impression, heritage, genre.

Kirish. Ma'naviy boylik yaratuvchilar va ularni targ'ib etuvchilarda haqqoniy zakovat, jozibador samimiyat bo'lishi zarur. Chunki dildan dilga yo'l bor. Bu yo'lni faqat haqiqat kaliti bilan ochish mumkin. Ma'naviyat inson ongiga, uning qalbiga haqiqat kuchi va go'zallik jozibasi yordamida kirib o'rtnashadi [1; 137].

Safarnomalarning ko'plab o'ziga xos jihatlarini orasida uning bevosita inson ma'naviy olamiga ta'siri masalasini ham kiritish mumkin. Safarnomalardan anglashiladigan va ular xizmat qiladigan maqsad ham aslida inson ma'naviyati va ma'rifatiga ijobiy ta'sir o'tkazish, tafakkur olamini kengaytirishdan iboratdir. "Yozuvchi mahorati, — deb yozadi Izzat Sulton, — aytmoqchi bo'lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so'z va iboralarni topa bilishdan iborat" [2; 266].

Qamchibek Kenjaning "Hind sorig'a" dan to "Buyuk Sohibqiron o'tgan yo'llar" gacha bo'lgan turkum safarnomalari badiiy-publitsistik uslub, ishonchli faktlar, ma'lumotlarning aniqligi va hayotiyliigi, muallif mushohadasining teranligi bilan ajralib turadi. Sayyoh-yozuvchining safarnomalarda safar taassurotlari shunchaki bayon etilmaydi, balki ularning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jihatlarini tahlil qilinib, ochib beriladi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov Qamchibek Kenjaning "Hind sorig'a" safarnomasiga yozgan so'zboshisida ushbu asarning ahamiyatga molik jihatlarini haqida quyidagilarni bayon etadi: "Asar kundalik shaklida yozilgan. Unda tasvirlangan sarguzashtlar, yengib o'tilgan qiyinchiliklar, yangi-yangi o'lklar va mamlakatlar manzarasi o'quvchini astoydil qiziqtiradi... "O'nta bo'lsa, o'rni boshqa" deganlaridek, Qamchibekning ushbu asari Bobur Mirzoga bag'ishlangan kitoblar orasidan o'ziga xos o'rin oladi, safarnoma janrini ko'pgina yangiliklar bilan boyitadi... Asarning

yana bir qiziqarli tomoni — unda tashqi olam tasviri bilan birga muallifning ichki dunyosi, safardoshlariga mehr-u oqibati, o'zga yurtlarda ko'p yashagan sari Vatanni sog'inishi goh lirik, goh yumoristik bo'yoq bilan maroqli tarzda ifodalanadi" [4; 6].

Qamchibek Kenja safarnomalarining badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, ularni ta'sirchanlik, haqqoniylik, yozuvchi samimiyati, mazmun va shakl uyg'unligi tamoyillari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqamiz. Badiiylikning asosiy shartlaridan biri "ta'sirchanlik" deb belgilanishi bejiz emas, albatta. Negaki, agar asar o'z kitobxonni qalbini larzaga solib, uni hayajonlantirib, ko'ngliga yo'l topa olsagina, ijodkor o'z maqsadiga yetadi. Asarning badiiy mukammallik kasb etishida bir qancha omillar o'ziga xos o'rin egallaydi. Taniqli munaqqidimiz Ozod Sharafiddinov bu xususda: "Badiiylikni bir qolipga joylab bo'lmaydi. Negaki, badiiyat iste'dodning mevasi, iste'dod esa turfa xil bo'ladi. Menga qolsa, kitobxonning ham aqliga, ham tuyg'ulariga oziq beradigan, uni hayajonga sola oladigan, uzoq muddatga qalbida o'rnatilib qola oladigan asarni badiiy barkamol asar desa bo'lar" [4; 4], — degan fikrlarni yozib qoldirgan.

Safar kundaliklarini noma janri darajasiga olib chiqish katta mas'uliyat va yuksak iste'dodni talab qiladi. Sayyoh-yozuvchilar kitobxonning bu masaladagi savoliga go'yoki oldindan javob bergandek, janr tanlovi borasida o'z fikrlarini ham ifoda etishgan: "Safarlarimizni xatga tushirib qo'yish, keyin, boshda Vatan sog'inchi tuyg'ularini kengroq ifodalash vositasi sifatida shu janrni tanlagan edim. Eng asosiysi, safarnomalar men uchun tirikchilik omili bo'lmadi. Nima bo'lsayam, keyingi yigirma yildan ziyodroq umrim asosan safarnomalar bitishga sarflandi" [3; 62].

Sayyoh-muallif safarnomaga ilmiylik va badiiylik xususiyatlarini uyg'unlashtira olishi, zerikarli yo'l tasvirlarini badiiy joziba bilan boyitishi asnosida bo'rtirma va yolg'onlarsiz xolisona yondashishi lozim. Bu haqda "Andijondan Dakkagacha" kitobiga so'zboshi yozgan O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi so'zlari e'tiborli: "Safar taassurotlari, xotiralarini kitobat qilmoqning murakkab va injiq tomonlari borki, ularni hisobga olmay qalam surilsa, ko'zlangan maqsadga erishmoq qiyin. ... ma'lumotlarni aniq, lo'nda, hayotiy, to'qima va mubolag'alardan xoliroq bo'lgan tasvirlarda berishdir. Safarnomaning tom ma'noda badiiy to'qima, tasavvur mahsuli emasligini unutmagan holda unga badiiylikdan yiroqroq hisobotnoma sifatida ham qaramaslik kerak" [4; 4].

Darhaqiqat, Qamchibek Kenja o'zining "Hind sorig'a" va umuman boshqa safarnomalarida har bir voqea-hodisani yoritishda o'ziga xos uslubda yondashadi. Ko'zi bilan ko'rib, guvoh bo'lgan tasvirlarga shunchaki beparvo o'tib ketolmaydi. Dilidan o'tgan kechinmalarni kitobxon bilan o'rtoqlashadi. Bu esa o'sha onlarda samimiy lahzalarni paydo etib, yozuvchi tuyg'ulari kitobxonga ham ko'chgandek tuyuladi. Har ikkisi ham safar jarayoni qatnashchisidek tasavvur uyg'otadi.

Qamchibek Kenjaning har bir safarnomasidagi epilog — safarga chiqish yoki uning sabablari izohi voqealari bilan boshlanadi. "Hind sorig'a" — adibning ilk safarnomasi. Ekspeditsiya yo'nalishi va maqsadini ifoda etib turgan "Ushalmagan orzular sari" sarlavhasidayoq safarga da'vat, go'shanishinlikni sayohat bilan almashtirish daragi va zavqi bor. Hali ekspeditsiya bilan tanishmagan, uning sayohatlarini shunchaki kuzatib yurgan Qamchibek Kenja so'zni safarga taklifdan boshlaydi: "O'sha kuni mart oyining taxminan oxirgi shanbasi edi. Qishloqda bahorgi yumushlar qizigan payt. Erta turib, hovlida o'g'illar bilan endi ish boshlagan edik, biron chiqarib qoldi. Chiqsam, ko'chada Zokirjon aka Mashrabov turibdi...

— Navbatdagi safarga hozirlik ko'rayapmiz, — deb gap boshladi Zokirjon aka salom-alikdan so'ng, — rahbarlarning roziligini oldik. Bu galgi yo'nalishimiz, niyatimiz, asosan, Hindiston, ekspeditsiya a'zolarini tanlayapmiz. Bobur shoir, adib bo'lgan. Shuning uchun safimizda andijonlik adiblardan ham bo'lishi kerak. Shu masalada siz bilan maslahatlashgani keldim. To'g'rirog'i, sizning taklifingizni bilmoqchiman..."

Shu so'zlardan so'ng safarga rasman taklif qilingan adib hayotida va ijodiy tafakkurida sayohatlar davri boshlanadi. Muqimlik sayohatga almashadi. Bu holat xuddi xalq ertaklarining muqaddimasiga o'xshashi bilan ham ahamiyatli. Xalq ertaklarida ham qahramonning passiv hayoti safarga da'vat yoki taklif bilan faollashadi.

Adabiyotshunos Ibrohim G'afurov shunday deydi: "Sayohatnomalar yozuvchining dunyoga, dunyo masalalariga munosabatiningina emas, shu munosabatlar orqali ularning kim va qanday inson ekanliklarini ham yorqin namoyon etadi" [5; 42]. Bu fikr orqali Ibrohim G'afurov sayohatchi xotiralarida muallifning subyektiv dunyosi, qalb manzaralari, ongi, saviyasi, dunyoqarashi, tuyg'u va sezimlari, insoniy va ijodiy fazilatlarini yaqqol ko'zga tashlanishini nazarda tutgan.

Umuman, safarnomalarning xos xususiyatlari ham, eng avvalo, ularning "barcha janrlar orasida anchayin shaxsiy janr" (A. Nurmanov) hisoblanishida, muallif "meni"ning yorqin namoyon bo'lishida ko'rinadi. Fikrimizning isboti tariqasida XVIII asr rus madaniyati va adabiyotida katta voqea bo'lgan Karamzinning "Rus sayyohining xatlari" safarnomasini eslasak. Hali safarnoma boshlaridanoq yurtini, Vatanini, atrofidagi odamlarni, hatto o'zining yozuv stoligacha cheksiz mehr qo'ygan muallif shaxsi, oldindan ayriqliq iztiroblarini his qilayotgan muallif-sayohatchi ruhiyati ko'z oldimizga keladi: "Men sizlardan uzoqlashdim, azizlarim, ayro tushdim. Eng nozik tuyg'ularim ila ko'nglim, yuragim sizlarga boylangan, ammo o'zim esa sizlardan har daqiqada ayirilib ketayapman va ayrilaman. O yurak, yurak! Kim biladi, sen nimalarni xohlaysan? Necha yillar davomida sayohat tasavvurimdagi eng yoqimli orzum bo'lib keldi. Hayajon bilan o'zinga-o'zim: Nihoyat mana, sen yo'lga chiqasan, dedim. Sayohat, yo'lga o'tlanish zavqi bilan tongda ko'z ochmadimmi, shu surur bilan uyquga ketmadimmi?! Qancha vaqt hech nimani o'ylamay, hech nimaga e'tibor bermay, faqat sayohat xayolida kunlar, soatlarni sanab yurdim. Ammo kutilgan kun yetib kelganda birinchi marta ayriqliq hissini tuydim. Men uchun juda aziz bo'lgan insonlarimdan, atrofimni to'ldirib turgan barcha-barcha narsalardan, yetilgan-yetilmagan o'y-fikrlarim tushirilgan qog'ozlar sochilib yotgan stol, tarqoq xayollarimni yig'ib olishga ko'maklashadigan deraza oldi, har tong endi ko'tarilayotgan quyosh bilan uchrashadigan joyim — eski uy, bir so'z bilan aytganda, nimagaki ko'zim tushmasin, ular yillar davomida umrimning ajralmas qismi, men uchun qimmatli xotiralarga aylanganini his qildim... Ayniqsa, mana shunday paytda to'kiladigan ko'z yoshlar yuqumli bo'ladi" [10; 6].

Xuddi ana shunday ruhoniy holat safar oldida turgan Behbudiy qalbidan ham kechadi. Ijodkorning "Qasdi safari"da

shunday manzara bor: “29-may 1914-sana, 17-rajabul murajjab 1332-sana hijriya, payshanba kuni kech soat 7 da qatorimiz mahbub Vatanim Samarqanddan harakat etdi. O’g’lim Ma’sudxo’ja manglayidan shafqat bo’sasi olib ayrulduk. Oh, vidoi oila, Vatandan chiqmoq nafaqat mushkul! Bu mushkulotdan qutulmoq uchun insonni o’lib Vatandan chiqmog’i kelur.

“Dili az sangi boyad bar sari oh vido’,
To tahammul kunad on ro’zki, mahmil beravd
(Ayrilish vaqtida toshdan ko’ngil kerak, toki qofila ketsun)” [6; 57].

Mumtoz safarnomanavis mualliflarning ruhiy holatlarini Qamchibek Kenjada ham kuzatishimiz mumkin: “...Boshqalarni bilmadim-u, lekin men o’sha lahzalarda nihoyatda hayajonda edim. Qalbmida sharhlash mushkul bo’lgan hissiyotlar qirg’oqdan toshayotgan daryo to’lqinlaridan ko’pirayotganga o’xshardi. Ko’nglimda taxminan Bobur qadamjolari, xususan, men uchun afsonaviy o’lka tuyuladigan Hindistonni ko’rish, tomosha qilish quvonchi-yu, butun bir viloyat xalq umidi va ishonchini oqlash uchun arziqli ish qilib qaytarmikinman, degan hadik va mas’uliyat hissi uyqash edi. Ayni vaqtda menda uzoq safarga otlanayotgan, oyog’i kindik qoni to’kilgan aziz yurtidan uzilayotgan, ko’ngil yaqinlaridan ayro tushayotgan odamda bo’ladigan dilgirlik ham yo’q emas edi” [4; 11].

Qizig’i shundaki, Qamchibek Kenjaning har bir safarnomasi shunday tuyg’ular in’ikosi bilan boshlanadi. “Andijondan Dakkagacha” kitobining dastlabki “Muqaddima. Gurkirov ta’rifida” bobida: “Yana olis safar tadorigi va hayajoni boshlandi. Bu gal Qashqar (Xitoy), Pokiston, Hindiston, Bangladesh orqali boburiy hukmdorlarning oxirgi yirik namoyandasi, davlat arbobi va taniqli shoir Bahodirshoh II Zafar umrining so’nggi yillarini musofirlikda, asirlikda o’tkazgan Rangun (Birma)gacha bormoq rejalashtirilgan” [7; 8]. Ushbu muqaddimada ham yuqoridagi hayajon bilan ta’sirlanish voqeasi bor. Lekin “Safarnoma – 2”da muayyan darajada aniqlik mavjud. Bu hol “Hind sorig’a” shaklida berilgan sarlavhadan ko’ra “Andijondan Dakkagacha” deb qo’yilgan kitob nomida ham, shunga mos ravishda asar muqaddimasida ham ifodalangan.

“Buyuklar izidan”ning boshidagi epilogda: “Ekspeditsiyadoshlarim Afg’onistonda bir necha bor bo’lishgan. Rahbarimiz Zokirjon aka Mashrabov har gal men uchun tumanli va vahimali zamin bo’lib tuyulgan ana shu mamlakatda ko’rganlarini, boshidan kechirgan rango-rang voqealarni hayajon bilan so’zlaganida yuragim bir hapqirib qo’yar, ko’ngil tubidagi “armon” otlig’ sarkash, besaranjom bir tuyg’u g’imirlay boshlar, o’sha safarlardan biriga jo’nash arafasida betoblanib qolib ketganim hali-hali o’zimga alam qilar edi” [8; 10], — degan his-hayajonli holatning ifodasini o’qiyimiz. Yozuvchining bu so’zlari kitobxonni nafaqat ushbu asarni shunchaki o’qib ko’rishga, balki uning roviysi, qahramonlari bilan xayolan bo’lsa-da, olg’a yurishga, safarga chiqishga undaydi. Toki uning ham qalbida bu safardan qolib ketish armon bo’lmasin. Muqaddimada qiziqish bilan andak hadik, ozroq vahima namoyon bo’layotgandek. Mana shu bilinar-bilinmas tuyg’u roviy qalbidan bevosita asarga ko’chadi va asar so’ngigacha u orqali kitobxonga o’z ta’sirini o’tkazadi.

“Andijondan Bog’dodgacha” safarnomasida esa yo’lga chiqish hayajonlari ikki bobni tashkil qilgan. Boblarning nomlari ham shunga monand: “Hayajon”, “Jahonning shodligi”. Boblarda muallif safarga chiqish tadorigi, elchixonalardan ruxsat olish mashmashalarini ham batafsil tasvirlaydi. Tasvir va taassurotlarning yozma bayonini o’qigan kitobxon esa asar roviysi kabi, balki undan ham ko’proq yo’lga intiladi. Qachon bu muammolar tugaydi-yu, ekspeditsiya yo’lga chiqadi, deb kutadi. Bu holat dramatik pafosni kuchaytirib, asarning badiiy-estetik kuchini, kitobxonning safar taassurotlari bilan tezroq va ko’proq tanishib olish ishtiyoqini oshirishga xizmat qiladi. Demak, endi muallif safarga chiqishning ancha “hadisini olib” qolgan, shuning uchun u endi safarning o’zidan emas, balki uning tadoriklaridan so’z boshlaydi.

Muallif qalamiga mansub safarnomalarda safarga chiqish qanchalik zavqli bo’lsa, Vatanga qaytish undan-da ehtirosli tasvirlangan. Roviyning Vatan sog’inchi, intiq-intizorligi, xuddi safarga otlanishdagi kabi, unga qaytishdagi intilishi, talpinishi safarnoma o’quvchisiga ham “yuqadi”. “Hind sorig’a” kitobining so’nggi boblarida mana shu intilish, talpinish ohanglari mujassam. Bu sarlavhalaridayoq namoyon bo’la boshlaydi: “Tushlarimda Andijon”, “Ona yurt nafasi”, “Vatandan yaxshi yor bo’lmas”.

“Ona yurt nafasi” bobida Eron zaminidan Turkmaniston hududiga o’tgandan keyingi dastlabki taassurotlar, his-tuyg’ular tasvirlanadi: “...garchi qo’rqadigan, xavotirlanadigan hech narsa bo’lmasa ham, bir chegaradan ikkinchi yurt hududiga o’tib olganingdan beixtiyor yengil tortasan ekan. Bu yerda ham shunday bo’ldi. Turkmaniston zaminiga (aslida bu ham boshqa mamlakat-u, lekin har qalay o’zimizniki degan tushuncha ongimizdan hali butunlay chiqib ketmagan-da) qadam qo’yganimiz zahoti Farrux bilan Ahmadjon qarsak chalishib, yerga cho’kkalashib, quvonchini, Vatanga, ona tuproqqa bo’lgan muhabbatini izhor qilishdi. Quvonchga hamma sherik bo’ldi. Hatto oqsoqollarimizning chehralari ham yashnab ketdi” [4; 326].

“Andijondan Dakkagacha” asari roviysi ma’lum bir kilometr yo’l bosadi. Shunga monand safarnomani avvalgilardan farqli o’laroq “Qirg’iziston”, “Qashqar (Xitoy)”, “Pokiston”, “Hindiston”, “Bangladesh”, “Yana Hindiston”, “Yana Pokiston”, “Eron”, “Turkmaniston”, “Jon O’zbekiston” kabi katta bo’limlarga bo’ladi. Kitobning xotima bo’limi “Jon O’zbekiston” deb atalishining o’ziyoq Vatan sog’inchi, muhabbatini ta’kidlab ifodalaydi: “...Bisotimizda qolgan o’rik qoqilarni chiqish postida turgan askar va o’sha yerda pul almashtirish maqsadida yurganlarga “mozor bosdi” deb ulashdik-da, o’zimiz ham o’zimizga oq yo’l tilab, “hayyo-huyt” deb jo’nadik. Kayfiyatlar chog’, o’z Vatanimiz zaminidamiz. Bu aziz tuproqqa 48 kun deganda qayta qadam qo’yidik. Buxoroning cho’l hududlari ko’zimizga jannatday ko’rinardi” [7; 340].

Safardan qaytish “Andijondan Dakkagacha”da ancha batafsil, badiiy jihatdan ham mukammal tasvirlangan. Bu hissiyotlar muallif qalbidan asar sahifasiga, u orqali esa kitobxon ko’ngliga kirib boradi. U ham xuddi uzoq safarda yurgandek, Hind-u Afg’on zaminini kezgandek, ba’zan och-nahor, gohida hatto bir tomchi suvga zor bo’lib safar qilgandek, yurtning tuprog’ini ko’ziga to’tiyo qilishga tayyor bo’ladi. Vatan chegarasini tezroq bosib o’tishga, buning uchun hatto qush kabi yelishga, uchishga tayyor bo’ladi. Afg’onistonda 17 kun yurib, yurt diydorini sog’ingan muallif “Buyuklar izidan” asarining epilogi — **“Vatanga intilish”** lavhasini shunday boshlaydi: “Juma aslan muborak sana. Bu juma yanada

muborakroqdir: chunki biz Vatanga qaytadigan kun... yo'lga chiqdik. Shabada yo'q. Dasht sokin edi. Yo'ning yarmida, qum, tuproq bosadigan joyda O'zbekistondan kelgan o'ndan ortiq skreper, buldozer va boshqa texnikalar ko'chani tozalab, kengaytirmoqda edi.

Afg'oniston bojxonasidan tezgina o'tdigi-u, Hayraton ko'prigi oldida o'zimiznikilarning ruxsat berishlarini kutib, ancha turib qoldik. Har holda, ko'prikdan ham, o'zimizning bojxonamizdan ham ko'p zahmat chekmay o'tishga musharraf bo'ldik" [8; 231]. Muallif bunday paytlarda safar kundaliklarining real yozuvchisi, tarixiy faktlarning sovuqqon hisobchisi emas, chin ma'noda shoir bo'lib ketadi. Birgina "musharraf bo'ldik" kalomida Vatan diydoriga intizorlik, uning bu diydorga erishmog'ini sharaflab deb bilish iftixori va ehtiromi mujassam. Bu iftixor va ehtirom har bir narsaga qarashda, uni ilg'ashda va his qilishda ko'rinadi: "O'ngga — Urgutga burilib ketadigan ko'cha bilan asosiy yo'l burchagidagi tepalikda Hazrati Navoiyning salobatli haykali biz tomonga qarab turardi — go'yo bizni intizorlik bilan kutganday, quchoq ochib qarshi olayotganday, istiqbolimizga talpinib kelayotganday, "Xurosonda, Hirida nima gaplar, ustoz Jomiyning holi nechuk?" deya so'ramoqchiday, "Mavlono Lutfiyini yo'qlab borg'oningizdan behad shodmen", demoqchiday..." [8; 234]. Urgut tumaniga ketish yo'lidagi shunchaki turgan Navoiy haykali ilhom berib, Qamchibek Kenja qalbidagi sog'inch tuyg'ulari sabab ijodkorning safar taassurotlari bilan bog'liq hayotiy va xayoliy tasavvurlarining jonlanib ketganini kuzatamiz.

"Andijondan Bog'dodgacha" kitobining prologida qadim abbosiylarning, umuman, Arab xalifaligining muazzam va qadimiy poytaxtigacha borgan muallifning Turkmaniston chegarasi orqali Vatanga qaytishi quyidagicha tasvirlanadi: "Tundagi kabi, bugun ertalab ham manzil so'rab zerikdik. Ko'chalarda, aylanma va muyulishlarda ham yo'l ko'rsatkich yo'q, ko'chalar yaxshi emas. Chegaraga eson-omon yetib oldik. Bojxona bilan yonma-yon o'rik gullagan edi. Nazarimda, shu gal safarda juda uzoq yurganday, kuzda ketib, bahorda qaytayotganday edik. Soat 12 da O'zbekiston — jonajon Vatan zaminida edik. Bojxonadagilar Zokirjon akani, Bobur ekspeditsiyasini bilishardi, hujjatlarni tezgina rasmiylashtirib, oq yo'l tilab qolishdi. Ko'cha bo'ylarida archalar ekilmoqda, tok ko'tarish, yer tekislash va boshqa bahoriy yumushlar boshlanib ketgan edi" [9; 247]. Yo'l azobi — go'r azobi, deydilar. Ushbu satrlarda biz nafaqat jismonan, balki ruhan ham toliqqan, Vatan diydorini qo'msagan ko'ngil ovozi eshitamiz, his qilamiz. Bu hissiyotlar o'rikning gullashi, ekilayotgan archalar, ko'tarilayotgan toklar, tekislanayotgan yo'llar misolida moddiylashib, jonli tasvirlanadi. Biroq bu toliqish va qo'msash vaqtinchalik. Tez orada sayyoh tabiat qo'yniga yana safarga talpinaveradi.

Qamchibek Kenja o'z asarlarida safar haqidagi rivoyatlardan ham o'z o'rnida foydalanadiki, bu ham asarning badiiy quvvatini oshiradi. Qamchibek Kenja "Hind sorig'a" safarnomasida nazmga ham o'rin beradi. Shoirni "yurak bilan ko'radigan inson" deya ta'riflaydilar. Sayyoh-yozuvchi garchi ushbu safarnomani nasrda bitgan bo'lsa-da, uning shoir qalbi va ilhomidan to'kilgan satrlarning dardi hamda iztirobi safar voqeligi bayonini to'ldiradi.

Qamchibek Kenja safarnomalarini o'qir ekanmiz, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz nafaqat o'zlaridan qolgan adabiy-ilmiy meros, balki hali-hanuz insonlarga beminnat xizmat qilib kelayotgan moddiy meroslar — rabotlar, masjidlar, ko'priklar kabi inshootlar bilan ham bashariyatning mangu alqoviga sazovor bo'lib kelayotganlariga guvoh bo'lamiz. Alisher Navoiyning doimo xalq manfaati yo'lida amalga oshirgan xayrli ishlari, xususan, kasalxonalar qurdirgani, kambag'al xalqqa kiyim-kechak tarqatgani, talabalarni shaxsiy mablag'i hisobiga o'qitgani haqida ko'plab ma'lumotlarga egamiz. Hazrati Navoiyning bu kabi savobli ishlari qatorida uning Saripul ko'prigini bunyod etishdagi sa'y-harakatlari ham tahsinga loyiqdir. Garchi qadimiy bo'lsa-da, Saripul ko'prigi bugungi kunda ham xalqqa beminnat xizmat qilmoqda. Sababi, u juda mustahkam hamda pishiq qilib qurilgan bo'lib, ko'prikn o'z ko'zi bilan ko'rib, bunga amin bo'lgan Qamchibek Kenja uni shunday tasvirlaydi: "Ko'prikn qadimiyligidan guvohlik beruvchi tuzilishi va qurilishi kishini hayratga soladi: bironta cho'p ham ishlatilmay, yupqa, enlik musulmon g'ishtdan, gumbaz sifatida qurilgan. Ostidan o'tgan Saripul daryosining keng o'zanidagi ozgina suv qariyalar kabi sipo, shoshilmay, katta-kichik toshlarga urilib-surilib bormoqda. Albatta, Alisher Navoiy davrida bu bahri asov to'lib oqqan bo'lishi kerak. Lekin har holda, ana shu bir hovuchgina obi hayot daryoning nomini hanuz mo'tabar qilib, e'zoz-u sharafla burkab kelmoqda". Buyuk bobomeros inshootlarni ko'zdan kechirarkan, muallif: "Badiyatning oltin xazinasiga aylangan, bo'yi barobar durdona asarlarini, qazdirgan ariqlarini, yetim-yesir va beva-bechoralarga ko'rsatgan muruvvatlarini, oltmishta imorat-inshootidan ellik to'qqiztasini bir tomonga qo'ya turaylik, mana shu birgina ko'prikn ajri bir bandai mo'minni Pulsirotdan bexatar olib o'tsa ajabmas" [8; 46], — deydi qalbi g'urur va iftixorga to'lib.

Guvohi bo'lganimizdek, sayyoh-muallifning Saripul ko'prigi haqidagi ma'lumotlari XV–XVI asrlardagi yo'l qurilishi, savdo-sotiq aloqalari va muhandislik madaniyati haqida kitobxonda mushohada uyg'otadi, tarixiy voqelik yuzasidan tasavvur hosil qiladi. Safarnoma o'quvchida

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pirimqul Qodirov. Qalb ko'zlari (Badialar, o'ylar, esdaliklar). — Toshkent: Ma'naviyat, 2001. — 232 b.
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. — B. 77.
3. Abdunabi Boyqo'ziyev. Ay, akam daryo ekan... (Yozuvchi Qamchibek Kenja haqida esselar, suhbatlar). — Toshkent, 2015. — B. 80.
4. Qamchibek Kenja. Hind sorig'a (Safarnoma). — Toshkent: Sharq, 2000. — 352 b.
5. Ibrohim G'afurov. Mangu latofat. — Toshkent: Sharq, 2008. — 464 b.
6. Mahmudxo'ja Behbudiy. Qasdi safar // Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006. — 280 b.
7. Qamchibek Kenja. Andijondan Dakagacha. — Toshkent: Sharq, 2003. — 384 b.
8. Qamchibek Kenja. Buyuklar izidan. — Toshkent: Sharq, 2006. — 240 b.
9. Qamchibek Kenja. Andijondan Bog'dodgacha. Safarnoma-4. — Toshkent: Sharq, 2007. — 256 b.
10. Карамзин Н. М. Письма русского путешественника. — Москва: Наука, 1984. — 718 с.